



O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI DAVLAT STATISTIKA QO‘MITASINING QARORI

2022 y. “28” sentabr № 34

“Ichki savdo statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida

O‘zbekiston Respublikasining “Rasmiy statistika to‘g‘risida”gi Qonuniga muvofiq, xalqaro tajribalarni inobatga olgan holda ichki savdo statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiyatni yanada takomillashtirish maqsadida, Davlat statistika qo‘mitasi qaror qiladi:

1. Ichki savdo statistikasi ko‘rsatkichlarini shakllantirish bo‘yicha uslubiy nizom ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

2. O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining 2010- yil 27- avgustdagi “Ulgurji savdo tovar aylanmasi va tovar zaxiralarini statistika hisobi bo‘yicha uslubiy nizom”ni taqdiqlash to‘g‘risida 4- son qarori, 2013- yil 2- avgustdagi “Ulgurji savdo tovar aylanmasi va tovar zaxiralarini statistik hisobi bo‘yicha nizomga o‘zgartirish va qo‘shimchalar kiritish” haqida 11- son qarori hamda 2018- yil 2- noyabrdagi “Chakana savdo tovar aylanmasining statistika hisobi bo‘yicha uslubiy nizom”ni tasdiqlash to‘g‘risida 22- son qarori o‘z kuchini yo‘qotgan deb hisoblansin.

3. Mazkur qaror 2023- yil 1- yanvardan kuchga kiradi.

Rais

B. Begalov